

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING TA‘LIM-TARBIYA RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI

Samandarova Rayhona Ilhom qizi

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Mumtoz sharq filologiyasi fakulteti
dinsotsiopsixologiyasi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston jadidchilik harakatining yorqin namoyondasi, ma‘rifatparvar publisist, dramaturg Mahmudxo‘ja Behbudiyning hayot yo‘li va ilmiy merosi, xususan, “Padarkush” dramasi va “Behbudiya” kutubxonasi ta‘lim-tarbiya rivojidagi ahamiyati haqida so‘z ochiladi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, “Padarkush yoki o‘qimagan bolaning holi”, “Behbudiya” kutubxonasi.

Buyuk ma‘rifatparvar alloma, yozuvchi, dramaturg va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy 1874-yilning 19-yanvarida Samarqand shahrida muftiy oilasida dunyoga keldi. Oiladagi muhit undagi ma‘rifat, adabiyot va ijtimoiy hayotga bo‘lgan qiziqishning kuchayishiga, iste‘dodining rangin qirralari bilan namoyon bo‘lishiga imkon tug‘dirdi.

Behbudiyning otasi islom huquqshunosligi sohasida zakii mutaxassis bo‘lib, bu borada ko‘plab kitoblar, risolalar yaratgan edi. Ushbu omil o‘z navbatida Mahmudxo‘jaga ta‘sir o‘tkazmay qolmadi. U keyinchalik bu haqda so‘zlab, maqolalaridan birida otasining “Hidoya”, “Islom huquqiga sharhlar” asarlari o‘z taqdirida katta rol o‘ynaganini alohida qayd etgandi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy adabiyot, tarix, huquq va maorif qatori siyosatshunoslik bilan ham jiddiy shug‘ullandi. Gazeta-jurnallar orqali jahonda sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy voqealar bilan yaqindan tanishib bordi. O‘sha davrda Qozon va Orenburgda chiqadigan jurnal va gazetalar bilan hamkorlik qilib, ularda qator maqolalarini chop ettirdi. Maktab, maorif va madaniyat masalalari, ma‘rifatparvarlik g‘oyalarining targ‘iboti ushbu maqolalar mag‘zini tashkil etgan edi. Jumladan, maqolalarning birida shunday yozadi – “Maktab – dunyo imoratlarining eng muqaddasi va qadrlisidir. Maktabning chin va haqiqiy ma‘nosini bilgan millatlar jonlari, mollari bilan himmat va g‘ayratlarini sarf etib, millatning taraqqiyi rivojiga ijtixod qilurlar”.

Qrim-tatar allomasi Ismoil G‘aspinali (Gasprinskiy) va Mahmudxo‘ja Behbudiy bosh muharrirligidagi “Tarjimon” gazetasi uning buyuk ma‘rifatchi va o‘zbek jadidchilik harakati rahbarlaridan biri bo‘lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etdi. 1912-1913 yillarda Behbudiy Samarqandda “Samarqand” gazetasi va “Oina” jurnaliga asos soladi. “Oyina” haftalik jurnal bo‘lib, o‘zbek va tojik tilidagi maqolalar berib borilgan. Uning

obunachilari nafaqat Turkiston, balki Kavkaz, Tatariston, Eron, Afg'oniston, Hindiston va Turkiyada ham bor edilar. 1915-yilgacha nashr qilingan jurnalda Turkiston aholisining haq-huquqi, tarixi, til-adabiyot masalalariga bag'ishlangan g'oyat muhim maqolalar, bahslar berib borilgan. Ayniqsa, til masalasi muharrirning hamisha diqqat markazida turgan. Mahmudxo'ja Behbudiy millat taraqqiyoti uchun bir necha tilni bilish va zamonaviy ilm fandan boxabar bo'lishni shart deb hisoblagan. Bu haqida o'z maqolalarida batafsil to'xtaladi: "Biz turkistonliklarga turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq joizdur. Turkiy, ya'ni o'zbekini sababi shuki, Turkiston xalqining aksari o'zbekcha so'ylashur". Demak, o'zbek tilini bilishning zarurligi bu yurtida ko'pchilikning ushbu tilda gapirishi, ya'ni aksariyati o'zbeklar bo'lgani va ular bilan so'zlashish uchun kerakligi bilan isbotlanyapti. Shu tariqa Behbudiy bu tillarning nima uchun zarurligini izohlaydi: "Forsiy bo'lsa, madrasa va adabiy tilidur. Bu kungacha Turkistonni har tarafindag'i eski va yangi maktablarinda forsiy nazm va nasriy kitoblari ta'lim berilib kelgandur. Barcha madrasalarda shar'iy va diniy kitoblar arabiy ta'lim berilsa ham, mudarrislarini tahriru tarjimalari forschadur". Zamon ilmi o'rganmoq xususida esa shunday deydi: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdur. Zamon ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga poymol bo'lur".

Behbudiy o'zbek va fors-tojik tillarida o'nlab asarlar, ikki yuzdan ortiq maqolalar yaratgan. Jumladan, "Muntaxabi jug'rofiyai umumiy" ("Qisqacha umumiy jug'rofiya", 1903), "Kitob-ul-atfol" ("Bolalar uchun kitob", 1904), "Muxtasari tarixi islom" ("Islomning qisqacha tarixi", 1904), "Amaliyoti islom" (1905), "Russiyaning qisqacha jug'rofiyasi" (1908) kabi darsliklar va kitoblar yozgan. Uning 1901 yildan boshlab "Turkiston viloyati gazetasi", "Taraqqiy", "Xurshid", "Shuhrat", "Tujjor", "Osiyo", "Hurriyat", "Turon", "Sadoyi Turkiston", "Ulug' Turkiston", "Najot", "Mehnatkashlar tovushi", "Tirik so'z", "Tarjumon", "Sho'ro", "Vaqt", "Toza hayot", "Samarqand", "Oina" kabi gazeta va jurnallarda bosilgan maqolalari esa jamiyatning taraqqiyparvar qatlami kishilari va, ayniqsa, yoshlarning diqqat-e'tiborini qozongan edi.

Behbudiy dramaturg sifatida "Padarkush yoki o'qimagan bolaning holi" dramasini yaratgan. Bu asarida u savodsizlik, johillikning ayanchli oqibatlarini ko'rsatib, yoshlarni ilmi, madaniyatli bo'lishga chaqiradi. Pyesa 1911-yilda yozilib, 1912-yilda "Turon" gazetasida bosiladi. 1913-yilga kelib Samarqandda kitob holida chop etilgan "Padarkush" katta qiyinchilik va qarshiliklarga uchrab, nihoyat 1914-yilning 15-yanvarida Samarqandda sahna yuzini ko'radi. 27-fevralda esa Toshkentda, Abdulla Avloniy asos solgan «Turon» teatr truppasi tomonidan namoyish etiladi. Va ushbu sana, ya'ni 1914-yilning 27-fevrali o'zbek milliy teatriga asos solingan kun sifatida tarixga kirdi. Behbudiyning mazkur sahna asari birinchidan, millatni ma'rifat va taraqqiyot sari undashda buyuk rol o'ynagan bo'lsa, ikkinchidan, professional o'zbek teatri va

dramaturgiyasining maydonga kelishi hamda taraqqiyotida muhim asos bo'lib xizmat qildi.

1914-yilda Turkiya, Misrga borib, u yerdan muhim kitoblar, o'quv qo'llanmalarini olib keladi, yangi usuldagi maktab dasturi ustida ishlashga kirishadi. Maktab va maorif ravnaqiga, milliy madaniyat taraqqiyotiga oid qarashlari esa ana shu ilg'or g'oyalar markazida bo'ldi. Ayni chog'da u yangi usuldagi maktablar asoschisi va targ'ibotchisi, yangi darsliklarning ilk muallifi ham edi.

Shu o'rinda "Behbudiya kutubxonasi" Behbudiyning millat uchun boshlab bergan xayrli ishlari qatorida turadi. Samarqanddagi dastlabki mahalliy gazeta va milliy jurnalning noshiri, birinchi milliy drama muallifi, Turkistondagi usuli jadida maktablarining "birinchi nazariyotchi va amaliyotchilaridan", eng birinchi darsliklar yaratuvchisi Behbudiy kutubxona tashkil qilishda ham birinchilardan bo'ldi. Ushbu kutubxona Samarqand gubernatoridan rasman ruxsat olinib, 1908-yil 11-sentabr kuni shaharning "Yangi rasta" qismida ochilgan. Lekin kutubxona ochilishi xabari ancha avval ovoza bo'lib ketadi. Chunki bu haqda eng ommabop nashr "Turkiston viloyatining gazetasi" xabar qilgan edi. Kutubxonaning barcha rasmiy masalalari 27 bobdan iborat dasturda belgilab berilgan. Kutubxonaga a'zolik badali sifatida yiliga 3 so'm miqdorida mablag' tayinlanadi. Kutubxona maqsadi ham musulmonlarning kam xarj qilib ko'proq foyda olishlarini ko'zlar edi. Umuman, bitta kutubxona uchun nimalar kerak bo'ladigan bo'lsa, Behbudiy bularning barchasini hozirlash harakatida bo'lgan.

Kutubxona faoliyatida esa unga safdoshlari Hoji Muin, Vasliy Samarqandiy va muallim Abdulqodir Shakuriylar ko'maklashishgan. Kutubxonaning tarkibiy jihatdan juda boy xilma-xillikka ega fondi bo'lgan. Jumladan, turli davlatlarda nashr qilingan diniy hamda dunyoviy kitoblar, suratli jurnal va gazetalar, ensiklopediya, lug'atlar, xarita va atlaslardan o'qib foydalanish mumkin bo'lgan. Dastlab 200, keyinchalik 225 jild kitobga ega kutubxona kun davomida 14 soat ishlab turgan.

Mutolaaxona ochilganiga 7 oy to'lganda uning a'zolari soni 125 nafarga yetgan va jamiyat 2000ga yaqin kitobxon ehtiyojini qondirgan edi. Dastlabki ikki yil kutubxona ishlari uchun xayrli kechdi. Kutubxonaga a'zo va yon bosuvchi ko'ngillilar yetarlicha topilib turdi. Lekin 1910-yilga kelib uning faoliyati susaya boshladi. Buning bir qancha sabablari bor edi. Xususan, jadid-qadim ixtilofi va qadimchi ulamolarning jadidlarga qarshi uydirma mish-mishlari bunga asosiy sabab bo'ldi. Ilmdan bebahra va bu ishlarning fahmiga tushunib yetmagan avom esa uning zavoli uchun kurashdi. Mullolar kutubxonani kofirxona, zararli joy deb ota-onalarga farzandlarini unday joylarga yubormasliklarini buyurdi.

1912-yilga kelib esa kutubxonani ochib o'tirishga zarurat ham qolmadi. Kunlik kelib-ketuvchilar soni kutubxona ishchilari soni bilan tenglashib qoldi. Asta-sekin bu holat moliyaviy muammolarni keltirib chiqara boshladi. Shu sababli, 1914-yilning

boshida kutubxona faoliyat ko'rsatishga qiynalib qoldi. Ushbu yilning yillik yig'ilishida barcha 15 ta a'zo guvohligida kutubxonani saqlab qolish va uning moliyaviy jihatini hal etish uchun spektakl qo'yishga qaror qilindi. Lekin bu tadbirning kutubxonani jonlantirish uchun foydasi bo'lmadi. Behbudiy uzoq yillar xalqqa xizmat qildirmoqchi bo'lgan millat kutubxonasining taqdiriga nuqta qo'yildi.

Shundan so'ng Behbudiy kutubxonani o'z hovlisiga ko'chirdi va unga "Behbudiya kutubxonasi" deb nom berdi. Shu munosabat bilan unda Rossiya va xorijda nashr etilgan kitoblar arzon narxda sotilishini ham e'lon qildi.

Kutubxona Behbudiy o'ylaganidek keng ravnaq topmasa-da, uning ziyolilar va ilm ahliga foydasi behad ulkan bo'lgan. U Behbudiyning keyingi faoliyati – "Oyina", "Samarqand" nashrlari uchun asos manbalardan biri bo'lib xizmat qildi, deb aytish mumkin. "Padarkush" dramasi ham ilk bor sahna yuzini ko'rishi bevosita kutubxona turkisi samarasi edi. Bu esa Behbudiyning ta'lim-tarbiya rivoji uchun yana bir xayrli ishidan nishona edi.

Xulosa qilib aytganda, Turkiston ijtimoiy-siyosiy harakatining eng yirik namoyandasi, Turkiston jadidlari rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g'oyasining bayroqdori, yangi maktabchilik nazariyotchisi va amaliyotchisi Mahmudxo'ja Behbudiy o'zining avlodlarni ozodlik va mustaqillik ruhida tarbiyalash, ma'rifat va taraqqiyotga boshlash yo'lidagi xizmatlari bilan butun Turkistond o'lkasida ta'lim-tarbiyaning rivojiga ulkan hissa qo'shgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mahmud, Vadud. Tanlangan asarlar. –Toshkent: Ma'naviyat, 2007. B.144
2. Ahrorova, Z. Behbudiy kutubxonasi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. 17.02. 1995.
3. Mahmudxo'ja bin Behbudxo'ja xatib. Mutolaaxona // Turkiston viloyatining gazetasi. 1908 №48.; Yusufzoda. Pismo iz' Samar kanda // Turkiston viloyatining gazetasi. 1910. № 16.
4. Mahmudxo'ja bin Behbudxo'ja. Samarqand kitobxona jamiyati // Turkiston viloyatining gazetasi. 1908 № 58.
5. Mahmudxo'ja bin Behbudxo'ja xatib. Mutolaaxona// Turkiston viloyatining gazetasi. 1908 № 48
6. Yusufzoda. Pismo iz' Samarkanda// Turkiston viloyatining gazetasi. 1910. № 16.
7. Abdirashidov, Z. Ismail Gasprinskiy i Turkestan v nachale XX veka: svazi-otnosheniya-vliyaniye.–Toshkent : Akademnashr, 2011. – B. 267
8. Behbudiya kutubxonasi// Oyina. 1914. № 27
Jadid.uz., Zarnews